ONA HAQIDAGI STEREOTIPLARNING MAKTAB O‘QUVCHILARI ASSOTSIATSIYALARIDA VOQELANISHI

X.M.Murodova[1]

1. Qo‘qon davlat universiteti 3-kurs tayanch doktoranti

Mas'ul muallif: Murodova Xafiza Muxamamdjonovna, Qo‘qon davlat universiteti 3-kurs tayanch doktoranti.

Received: 04 Noyabr 2026
Accepted: 09 Noyabr 2026
Published: 14 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Murodova, X. M. ONA HAQIDAGI STEREOTIPLARNING MAKTAB O‘QUVCHILARI ASSOTSIATSIYALARIDA VOQELANISHI / X. M. Murodova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 403–406.

Annotatsiya. O‘zbek jamiyatida o‘zbek xalqining qadriyatlar tizimida onalarga bo‘lgan munosabatning o‘rni ochib berilgan. Ijobiy stereotiplarda onalar haqidagi ijtimoiy, gender, diniy jihatdan yondashuvlarga asoslangan stereotiplar ham kuzatiladi. Mana shunday stereotiplardan biri “Ona – bu avlod davomchilarini dunyoga keltiruvchi shaxs” stereotipidir. Ona ikki tilda (o‘zbek va fransuz tillari)da ham eng ko‘p miqdorda ijobiy baholanadigan giperkonsept sifatida: boquvchi, ustoz, tarbiyachi, tayanch, fidoyi inson, do‘st, g‘amxo‘r, posbon, kechirimli, mehridaryo, dardkash, murabbiy, ezgulik timsoli kabi mikrokonseptlar bilan fikran bog‘lanadi”.

Kalit so'zlar: o‘zbek xalqining qadriyatlar tizimi, ijobiy stereotiplar, Onalik baxti, onalik saodati birikmalari, giperkonsept, mikrokonseptlar.

РЕАЛИЗАЦИЯ СТЕРЕОТИПОВ О МАТЕРИ В АССОЦИАЦИЯХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В статье раскрывается место и значение отношения к матерям в системе ценностей узбекского народа. Среди положительных стереотипов также наблюдаются стереотипы, основанные на социальных, гендерных и религиозных представлениях о матерях. Одним из таких стереотипов является представление о матери как о человеке, дарующем жизнь продолжателям рода. В узбекском и французском языках концепт «Мать» рассматривается как гиперконцепт, наиболее часто получающий положительную оценку и ассоциативно связанный с такими микроконцептами, как: кормилец, наставник, воспитатель, опора, самоотверженный человек, друг, заботливая личность, защитница, всепрощающая, милосердная, человек, разделяющий душевные переживания, наставник и символ добра.

Ключевые слова: система ценностей узбекского народа, положительные стереотипы, счастье материнства, материнское блаженство, гиперконцепт, микроконцепты.

THE MANIFESTATION OF MOTHERHOOD STEREOTYPES IN SCHOOLCHILDREN’S ASSOCIATIONS

Abstract. The article explores the place and significance of attitudes towards mothers within the value system of the Uzbek people. Positive stereotypes also include those based on social, gender-related, and religious perceptions of mothers. One such stereotype is the perception of a mother as a person who gives birth to the successors of the family lineage. In both Uzbek and French, the concept of “Mother” is regarded as a hyperconcept that receives the highest number of positive evaluations and is mentally associated with such microconcepts as breadwinner, mentor, educator, pillar of support, selfless person, friend, caring person, guardian, forgiving person, compassionate person, confidant, guide, and symbol of goodness.

Keywords: value system of the Uzbek people, positive stereotypes, happiness of motherhood, bliss of motherhood, hyperconcept, microconcepts.

Kirish. O‘zbek jamiyatida ona qadimdan muqaddas, mo‘tabar zot sifatida qadrlanib kelinadi. O‘zbek xalqining qadriyatlar tizimida onalarga bo‘lgan munosabat alohida o‘rin tutadi. Onalarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, ularni e’zozlash o‘zbek xalqining qadimiy milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Ona shaxsiga qadriyatli munosabat xalqimiz ongi, tafakkuriga singib ketgan.

O‘zbek jamiyatida onalar haqida, asosan, ijobiy stereotiplar shakllangan. Bunday stereotiplar ichida onalar haqidagi ijtimoiy, gender, diniy jihatdan yondashuvlarga asoslangan stereotiplar ham kuzatiladi. Bu stereotiplarning yuzaga kelishiga xalqning ko‘p yillik madaniy tajribasi, milliy urf-odatlari, an’analari, diniy qarashlari ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. Mana shunday stereotiplardan biri “Ona – bu avlod davomchilarini dunyoga keltiruvchi shaxs” stereotipidir.

O‘zbek madaniyatida onalarga, avvalo, avlod davomchilari – farzandlarni dunyoga keltirib, uni kamolotga yetaklovchi mo‘tabar zot sifatida qaraladi. Jamiyat a’zolari ongiga ona bo‘lish buyuk baxt ekanligi haqidagi qarashlar singib ketgan. Shu sababli o‘zbek ayollari o‘z baxtini, avvalo, oilasi, farzandlari davrasida ko‘rishadi. Ko‘pchilik o‘zbek

qizlarining birinchi orzusi oila qurish, farzandli bo‘lish va onalik baxtiga erishish, farzandining kamolotini ko‘rishdir. Onalik baxti, onalik saodati birikmalari mana shu stereotip asosida yuzaga kelgan. Ona turtki so‘ziga nisbatan o‘zbek tili egalarida hosil bo‘ladigan farzand ko‘rish, farzand ko‘rish baxti, farzandli bo‘lish, farzandli bo‘lish quvonchi kabi assotsiatsiyalarda ham mazkur stereotip manoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Aytish mumkinki, onalarning avlod davomchilarini dunyoga keltirishi haqidagi stereotiplar barcha millat vakillari ongidan barqaror stereotip sifatida o‘rin olgan. R.Ibragimovaning ta’kidlashicha, “ikki til madaniyatida (o‘zbek va fransuz – X.M.) ona bashariyat ko‘payishining sababchisi, odamzotning boqiy bo‘lish vositasi, insonni o‘zgartiruvchi kuch kabi “tashhislar” o‘rin oladi, jamiyatda onaning maqomini ko‘tardi va u “lahzalik” timsolga aylanadi. Ona ikki tilda ham eng ko‘p miqdorda ijobiy baholanadigan giperkonsept sifatida: boquvchi, ustoz, tarbiyachi, tayanch, fidoyi inson, do‘st, g‘amxo‘r, posbon, kechirimli, mehridaryo, dardkash, murabbiy, ezgulik timsoli kabi mikrokonseptlar bilan fikran bog‘lanadi”[1.B.17].

O‘zbek jamiyatida onalarga farzand tarbiyasiga mas’ul shaxs sifatida qaralishi, onalarning oila ma’naviy muhitidagi roli “Onalar oilaning ma’naviy-axloqiy ustunidir” stereotipini yuzaga keltirgan deyish mumkin. O‘zbek onasi nafaqat farzandini dunyoga keltiruvchi shaxs, balki unga ta’lim-tarbiya beruvchi, hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam beruvchi inson, oilaning ma’naviy muhitini tartibga soluvchi shaxs. Stereotipga ko‘ra, farzandlar odob-axloq me’yorlarini onalaridan o‘rganishadi, onalar, avvalo, alla, so‘ngra ertaklar, afsonalar, she’rlar, hikoyalar orqali farzandlariga yaxshilik, mehr-oqibat, sabr, do‘stlik, sadoqat, mehnatkashlik kabi qadriyatlardan saboq berishadi. Ona turtki so‘ziga nisbatan til egalarida hosil bo‘ladigan sabrli, oqibatli, bardoshli, sadoqatli, mehnatkash, g‘amxo‘r kabi assotsiatsiyalarida “Onalar oilaning ma’naviy-axloqiy ustunidir” stereotipi voqelanadi.

“Onalar oila manfaatini o‘z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yishadi” stereotipining yuzaga kelishi ko‘pchilik o‘zbek onalarining oilasi, farzandlari kamoloti, baxt-saodati yo‘lida o‘z orzularidan, manfaatlaridan voz kechganliklari bilan bog‘liq. Bu stereotip uzoq yillar davomida o‘zbek ayollarining shaxsiy rivojlanish, biror bir kasb-kor egasi bo‘lish, jamiyatda yuksak mavqeni egallash kabilarni oilaviy burch va vazifalardan keyingi o‘ringa qo‘yganliklarini ko‘rsatadi. Biroq keyingi yillarda o‘zbek ayollarining jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy hayotida ancha faollashganligi kuzatilmoqda. O‘zbek onalari davlat ishlarida yuqori mansablarda faoliyat ko‘rsatishmoqda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib, yuqori natijalarga erishmoqda. Bu holat mazkur stereotipni bugungi kunda yangicha talqin qilinishiga sabab bo‘lgan. Stereotipga ko‘ra, o‘zbek onalari o‘z shaxsiy manfaaatlari va oila, farzand manfaati teng kelgan holatda dastlab oila va farzandi manfaatini inobatga oladi. Demak, jamiyatdagi har qanday yangilanishlar, jamiyat a’zolariga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi sterotiplarning yangicha talqiniga olib kelishi mumkin.

Muhokama va natijalar. O‘zbek jamiyatida ona obrazi bo‘yicha yuzaga kelgan stereotiplardan yana biri “Onalar milliy an’nalarni saqlab qoluvchi va targ‘ib qiluvchi kishilardir” stereotipidir. Bu kabi stereotiplarning yuzaga kelishi milliy qadriyatlar, an’analar bilan bog‘liq. O‘zbeklar ijtimoiy-madaniy hayotida turli milliy urf-odatlar, an’analar muhim o‘rin tutadi. Ularni o‘tkazishda, tashkil qilishda asosan, onalar bosh-qosh bo‘lishadi. Masalan, o‘zbek oilasida farzand tug‘ilsa, chaqaloqqa alla aytiladi, beshik to‘yi o‘tkaziladi. Bu marosim onalar, amma-yu xolalar, yaqinlar, mahalla-ko‘yning ayollari ishtirokida o‘tkaziladi. Ushbu marosimda onalik baxtiga erishgan ona qutlanadi, unga va farzanliga sovg‘alar beriladi. Demak, yuqoridagi stereotip orqali o‘zbek onalarining milliy an’ana, urf-odatlarni avlodlardan avlodlarga o‘tishidagi xizmatiga urg‘u beriladi.

O‘zbeklar orasida keng tarqalgan “Onalar mehribon bo‘lishadi”, “Onalar farzand tarbiyasiga mas’ul” stereotiplari ham barqarorlashgan. R.Ibragimovaning ta’kidlashicha, “Onaning farzandga bo‘lgan mehri nafaqat biologik, balki ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ko‘proq mas’uliyat yuklaydi; onaning nafaqat farzand, balki jamiyat oldidagi farzand tarbiyasidek ulkan vazifasi otadan ko‘ra onani “birinchi ustoz” darajasiga ko‘taradi; jamiyat farzandni otadan ko‘ra onaga ishonib topshirishi onaning jamiyatdagi mavqeyini yanada oshiradi”[1.B.18].

Shunisi xarakterliki, nafaqat o‘zbek madaniyatida, balki boshqa xalqlar madaniyatida ham farzand tarbiyasi onalar zimmasiga yuklanganligi kuzatiladi. Xitoy tilshunosi Szin Chjin o‘z tadqiqot ishida bola so‘ziga nisbatan rus va xitoy sinaluvchilarida bir-biridan farqli assotsiatsiyalar hosil bo‘lganligi, xususan, rus sinaluvchilarida ребёнок (bola) so‘ziga мамочка (onajon), родители (ota-ona), бабушка (buvi), дед (bobo) javob reaksiyalari; xitoy sinaluvchilarida esa родители (ota-ona), мать (ona), жена (rafiqa), дедушка (bobo), бабушка (buvi) kabi javob reaksiyalari yuzaga kelganligini aniqlagan. Qizig‘i shundaki, har ikki millat vakillarida ребёнок (bola) turtki so‘ziga nisbatan отец (ota) javob reaksiyasi qayd etilmagan. Tadqiqotchi bu holatni mazkur madaniyatlarda an’anaviy tarzda bola tarbiyasi ko‘proq ayol zimmasiga yuklanishi bilan izohlagan. Shu bilan birga, rus lingvomadaniyatida birinchi o‘rinni мамочка (ona so‘zining kichraytirish-erkalash shakli), xitoy lingvomadaniyatida esa родители javob reaksiyasi egallagan[2.B.10].

O‘zbek onalarining farzand tarbiyasi, oiladagi yumushlari kabi ijtimoiy vazifalari bolalar ongidan o‘rin olgan stereotiplarda ham voqelanganligi kuzatildi. Ularning ona turtki so‘ziga bergan javob reaksiyalarida o‘zbek jamiyatida shakllangan ayrim barqaror stereotiplar namoyon bo‘ldi. Quyida bunday stereotiplarning assotsiatsiyalarda voqelanishini boshlang‘ich hamda yuqori sinf o‘quvchilarining ona turtki so‘ziga bergan javob reaksiyalari misolida tahlil qilamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining assotsiativ maydonida quyidagi stereotiplarni namoyon qiluvchi javob reaksiyalari kuzatildi:

1. “Onalar mehribon bo‘lishadi” stereotipi. Bu stereotip ona assotsiativ maydonidagi mehribon (69), ona mehribon (32), mening onam juda mehribon (6), onajonim mehribon (6), onam juda mehribon (6), oyijonim – mehribonim (6), onam mehribon (5), mehribonliklari (4), mehribonim (3), ona – g‘amxo‘r (2), mehribonim mening (1), menga onamning juda mehribon bo‘lishlari yoqadi (1), mening onam mehribon (1), mening onam mening mehribonim (1), ona mehri (1), onam

mehri (1), onamiz bizga mehribon (1), onam menga juda mehribon (1), ona men uchun mehribon (1) javob reaksiyalari orqali voqelangan.

2. “Onalar farzandi kamoli uchun o‘zini fido qiladigan insonlardir” stereotipi. Bu stereotip ona assotsiativ maydonidagi quyidagi javob reaksiyalari orqali voqelangan jonkuyar (5), onam oq tarab, oq sut bergan (2), oq tarab, oq yuvgan (2), kechalari uxlamay, oq yuvib, oq taragan (1), mening onam jonkuyar (1). Mazkur javob reaksiyalari ona obrazini fidoyi inson sifatida stereotiplashtiradi.

3. “Onalar go‘zal bo‘lishadi” stereotipi. Bu stereotip ona assotsiativ maydonidagi chiroyli (12), mening onam chiroyli (1), onam juda chiroyli (1), onam mening go‘zalim (1) javob reaksiyalari orqali yuzaga chiqqan. Ushbu stereotip o‘zbek jamiyatida ona (nafaqat ona, umuman, ayollar) obrazining go‘zallik timsoli sifatida ulug‘lanishini anglatadi.

4. “Uy yumushlari onalar zimmasida” stereotipi. Bu stereotipga ona assotsiativ maydonidagi mehnatkash (8), pazanda (3), mening onam mehnatkash (1) javob reaksiyalari ishora qiladi.

5. “Onalar farzandlariga shirinso‘z bo‘lishadi” stereotipi. Bu stereotip ona assotsiativ maydonidagi quyidagi javob reaksiyalari orqali voqelangan: onamning menga erkalashi yoqadi (1). Mazkur javob reaksiyalari onani hissiy-emotsional insonlar sifatida idrok etilishini anglatadi.

Xulosa qilish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining assotsiativ maydonida voqelangan stereotiplarda ona obrazining quyidagi xususiyatlari namoyon bo‘lgan:

1. O‘zbek onalarining farzandiga mehribonligi.
2. O‘zbek onalarining fidoyi inson ekanligi.
3. O‘zbek onalarining go‘zal ekanligi.
4. O‘zbek onalarining mehnatkash, pazanda ekanligi.
5. O‘zbek onalarining farzandlariga shirinso‘z ekanligi.

Yuqori sinf o‘quvchilarida ona turtki so‘ziga nisbatan hosil bo‘lgan javob reaksiyalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu yosh davrida o‘quvchilarning ona obrazi haqidagi tasavvurlari nisbatan barqarorlashgan bo‘lib, jamiyatda shakllangan quyidagi stereotiplarni aks ettirgan:

1. “Onalar mehribon bo‘lishadi” stereotipi. Ushbu stereotip ona assotsiativ maydonidagi mehribon (79), mehribonligi (23), onam mehribon (8), mehribon inson (7), mehribonim (5), dunyodagi eng mehribon (3), mehribon zot (2), mening mehribonim (2), mening onam eng mehribon (2), onajonim mehri (2), onam juda mehribon (2), g‘amxo‘r (2), bizga mehribon (1), bizni mehr bilan katta qilgan (1), mehrli inson (1), mehrli ko‘zlari (1), mening onam hammadan mehribon (1), mening onam mehribon (1), onajonim mehribon (1), onajonim mehribonim (1), mening mehribon onajonim (1) javob reaksiyalarida yuzaga chiqqan.

Mazkur stereotipning ko‘plab javob reaksiyalarida voqelanganligi uning o‘quvchilar ongida barqaror stereotip sifatida o‘rnashganligini tasdiqlaydi.

2. “Onalar farzandi kamoli uchun o‘zini fido qiladigan insonlardir” stereotipi. O‘zbek jamiyatida onalarning o‘z manfaatidan ko‘ra farzandi manfaatini ustun qo‘yishi haqida ijtimoiy qarashlar mavjud. Ushbu qarash assotsiativ maydondagi quyidagi javob reaksiyalari orqali voqelangan: bolasi uchun qayg‘uradigan inson (1), bizni mehr bilan katta qilgan (1), doim biz haqimizda qayg‘uradilar (1), har doim bizni o‘ylaydi (1), meni doim o‘ylaydigan inson (1), o‘zini o‘ylamasa ham, farzandlarini o‘ylaydigan inson (1).

3. “Ona – muqaddas zot” stereotipi. Bu stereotip ona assotsiativ maydonidagi diniy-ma’naviy mazmundagi quyidagi javob reaksiyalari orqali voqelangan: jannat (8), jannatim onam (3), farishta (2), eng muqaddas (1), jannatga yetaklovchi (1), jannatim bo‘lgan onam, meni kechiring (1), jannat onalar oyog‘i ostida (1), muqaddas (1), onamning oyoqlari ostida jannat bor (1), poyida jannat bor (1).

Mazkur javob reaksiyalari o‘zbek jamiyatida onalarga yuksak darajada ehtirom ko‘rsatilishi, ularning farishtaga tenglashtirilishi, jannati inson sifatida qadrlanishi o‘quvchilarda onalarning muqaddasligi haqidagi stereotipik tasavvurlarni yuzaga keltirganligini ko‘rsatadi.

4. “Onalar go‘zal bo‘lishadi” stereotipi. Bu stereotip ona assotsiativ maydonidagi chiroyli (5), eng go‘zal inson (1), eng chiroyli ayol (1), go‘zal (1), chiroyli kiyinishi (1) javob reaksiyalarida namoyon bo‘lgan. Mazkur javob reaksiyalari yuqori sinf o‘quvchilari ongida o‘zbek onasi tashqi ko‘rinishi jihatidan go‘zal ayol sifatida idrok etilishini ko‘rsatadi.

5. “Onalar farzandiga shirinso‘z va xushmuomalali bo‘lishadi” stereotipi. Bu stereotip ona assotsiativ maydonidagi quyidagi javob reaksiyalarida aks etgan: yaxshi gapirishlari (4), shirinso‘z (2), mehrli so‘zlari (1), onajonimning shirin so‘zlari (1), xushmuomalali (1), yaxshi gaplari (1), shirin so‘zlari (1). Ushbu javob reaksiyalarida onalarning farzandiga shirinso‘z va xushmuomalali bo‘lishi haqidagi stereotipik tasavvurlar bilan birga, ona va farzand o‘rtasidagi samimiy munosabat ham voqelanagn.

6. “Onalar qadrli va sevimli insonlardir” stereotipi. Ushbu stereotip ona assotsiativ maydonidagi quyidagi javob reaksiyalarida namoyon bo‘lgan: onajon, sizni yaxshi ko‘raman (11), men sizni yaxshi ko‘raman (9), yaxshi (4), mening eng yaxshi ko‘rgan insonim (3), men uchun qadrli (2), mening eng yaqin insonim (2) ona – bu dunyodagi eng yaxshi inson (2), yaxshi ko‘raman (2), aziz zot (1), bizga kerakli inson (1), dunyodagi eng yaxshi inson (1), hayotim mazmuni onam (1), jamiki muhabbatga loyiq inson (1), men onamni yaxshi ko‘raman (1), qadrli (1), ta’riflashga til ojiz (1), yagona (1). Mazkur javob reaksiyalari yuqori sinf o‘quvchilari ongida ona obrazi qadrli va sevimli inson sifatida gavdalangnligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, jamiyatda onalar haqida shakllangan barqaror stereotiplar yuqori sinf o‘quvchilarining ona assotsiativ maydonida ham voqelangan. Stereotipik xarakterdagi javob reaksiyalarida maktab o‘quvchilarining o‘z onasida kuzatgan xislatlar haqidagi qarashlari bilan birga, jamiyatda onalar haqida yuzaga kelgan

tasavvurlar ham namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида АЁЛ концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б.17.

[2] Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида АЁЛ концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б.17.

[3] Цзинь Чжи. Цзинь Чжи. Образ ребёнка в языковом сознании (на примере разных лингвокультур): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2019. – С. 10-11.